Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317573

Kichik bizneslar innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘z faoliyatini samarali tashkil etishlari mumkin. Innovatsiyalarni qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Shu sababli, kichik biznesga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun rag‘batlantirish va o‘quv dasturlarini yaratish zarur.

Ta’kidlab o‘tilgan moliyaviy yordamni kengaytirish, soliq imtiyozlarini joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu takliflar orqali nafaqat yangi biznes subyektlari paydo bo‘ladi, balki mavjud tadbirkorlar ham o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman olganda, bunday yondashuvlar iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va mamlakatdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov, A. Sh. (2020). Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent: Tashkent State University of Economics Publishing House.
2. Akhmedov, S. F. (2018). Bandlik va iqtisodiy rivojlanish: nazariy va amaliy tahlil. – Toshkent: UzBEKISTAN ECONOMY Press.
3. Zainov, A. (2019). Kichik biznes sektorining rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlari. – Journal of Small Business Economics, vol. 43, no. 4, pp. 876-895.
4. Kuzmina, M. (2021). Iqtisodiy siyosat va kichik biznesni rivojlantirish: davlat qo‘llab-quvvatlashi. – Economic Research Journal, vol. 29, pp. 58-74.
5. Davronov, M. M. (2022). Kichik biznes va uning bandlikka ta’siri: O‘zbekiston tajribasi. – Economics of Uzbekistan, no. 6, pp. 22-30.
6. OECD. (2020). Enhancing the role of small businesses in economic growth and employment. – OECD Report, Paris, France.
7. Husainov, B. (2017). Bandlik siyosati va kichik biznes. – Tashkent State University of Economics Journal, vol. 32, no. 2, pp. 101-113.

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG’UNLASHTIRISH

Suyarov Zokirjon Ergashevich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti katta o‘qituvchisi
Axmedov Ahadulloh Otabekovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Published: 24.05.2025

Cite this article: Suyarov Zokirjon Ergashevich, Axmedov Ahadulloh Otabekovich (2025). Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317573

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberxavfsizlikning kundalik hayotimizdagi ahamiyati va uning huquqiy jihatlari batafsil yoritilgan. Internet texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida kiberxavfsizlikning insonlar moliyaviy barqarorligi, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va davlat xavfsizligi uchun muhim ekani ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro va milliy qonunchilik me'yorlari, zamonaviy texnologik yechimlar va kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Kiberxavfsizlik, raqamlixavfsizlik, huquqiy jihatlar, kiberjinoyatlar, internet xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, texnologik innovatsiyalar, Budapesht konvensiyasi, O‘zbekiston qonunchiligi, blokcheyn, sun'iy intellect.

Kirish. Ijtimoiy himoya – bu jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tizim bo‘lib, u aholining ehtiyojmand va zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan davlat chora-tadbirlari yig‘indisidir. Mazkur tizimning asosiy maqsadi fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, ularni kutilmagan iqtisodiy yoki ijtimoiy zarbalardan himoya qilish va teng imkoniyatlarni yaratishdir. Ijtimoiy himoya hayotning turli sohalarida yuzaga keladigan xavf-xatarlarga qarshi barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu xavf-xatarlar orasida ishsizlik, qashshoqlik, sog‘liqni yo‘qotish, keksalik va boshqa turdagi zaiflik holatlari kiradi. Ijtimoiy himoya nafaqat yordam berish bilan cheklanmay, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar, yolg‘iz qariyalar, boquvchisini yo‘qotganlar yoki vaqtinchalik ishsiz qolganlar kabi aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruhlari ijtimoiy himoya tizimining diqqat markazida turadi. Bu tizim davlat tomonidan turli dasturlar, qonunlar va iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya tizimi bir necha asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birinchi navbatda, ijtimoiy sug‘urta tizimi mavjud bo‘lib, u pensiya ta’minoti, nogironlik yoki vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik uchunnafaqa va boshqa sug‘urta xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, kam ta’minlangan oilalar va ehtiyojmand fuqarolarga moliyaviy yoki moddiy yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, bandlikni ta’minlash va qayta tayyorlash dasturlari orqali aholining iqtisodiy faol bo‘lishiga ko‘maklashish ham muhim hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimining yana bir muhim elementi sog‘liqni saqlash sohasida imtiyozlar yaratish va bepul xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya fuqarolarni faqat qisqa muddatli muammolardan himoya qilish uchun emas, balki ularning hayot sifatini umumiy ravishda yaxshilash uchun ham mo‘ljallangan. Davlat

bu tizim orqali nafaqat ehtiyojmand guruhlarga yordam beradi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlaydi. Ijtimoiy himoya tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, u jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratib, inson qadr-qimmatini ta’minlashga xizmat qilsin.Shunday qilib, ijtimoiy himoya –bu jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib, uning asosiy vazifasi fuqarolarning farovonligi va xavfsizligini kafolatlashdan iboratdir.

Ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda ijtimoiy adolat, barqarorlik va fuqarolarning farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat uchun ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish faqatgina ijtimoiy tenglikni ta’minlash bilan cheklanmaydi, balki davlatning uzoq muddatli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy himoya tizimi orqali davlat nafaqat zaif qatlamlarni himoya qilishga yordam beradi, balki o‘z iqtisodiy faolligini kuchaytiradi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi va xalqaro miqyosda nufuzini oshiradi. Birinchidan, ijtimoiy himoya tizimi orqali davlatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shiladi. Kam ta’minlangan guruhlarga yordam ko‘rsatish orqali davlat iste’mol darajasini oshiradi, bu esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantirib, bozorning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyotida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun kam ta’minlangan guruhlarning ehtiyojlarini qondirish juda muhimdir. Bu, o‘z navbatida, davlatga qo‘shimcha soliq tushumlarini keltirib chiqaradi va iqtisodiy tizimni yanada kuchaytiradi.Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimi siyosiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Zaif guruhlarga ko‘rsatiladigan yordam davlatning fuqarolariga bo‘lgan g‘amxo‘rligini va jamiyatdagi tenglikni ta’minlashga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi. Bu ijtimoiy ziddiyatlar va noroziliklarning oldini olishga yordam beradi, siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi va davlatning ijtimoiy huquqlarni himoya qilishdagi ishonchli tasvirini yaratadi. Shuningdek, ijtimoiy yordamlar fuqarolarga adolatli imkoniyatlar yaratish orqali ijtimoiy huquqlarni ta’minlashga yordam beradi. Davlatning ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirishdagi funksiyalari va harakatlari davlatning jamiyatni rivojlantirishga bo‘lgan mas’uliyatini aks ettiradi. Ijtimoiy himoyaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy sug‘urta tizimi–bu davlat tomonidan taqdim etiladigan sug‘urta tizimi, u aholining pensiya ta’minoti, sog‘liqni saqlash, nogironlik yoki vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik kabi holatlarda qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Sug‘urta tizimi davlatning fuqarolariga iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlaydi va kutilmagan voqealar yuzasidan daromadning yo‘qolishini oldini oladi.
2. 2.Ijtimoiy yordam ko‘rsatish–davlat tomonidan kam ta’minlangan fuqarolarga nafaqa, oziq-ovqat, uylash va boshqa hayotiy ehtiyojlar bo‘yicha yordam

ko‘rsatiladi. Bu yordam tizimi ijtimoiy yordamchilar tomonidan boshqariladi va davlat tomonidan belgilangan maxsus mezonlar asosida amalga oshiriladi.

3. Bandlik va ta’lim tizimini rivojlantirish–davlat ta’lim tizimi orqali fuqarolarni mehnat bozoriga tayyorlaydi. Ijtimoiy himoya tizimi bandlikni qo‘llab-quvvatlash orqali ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi, shu bilan birga mehnat resurslarini malakali va samarali ishlatishga yordam beradi.

4. Sog‘liqni saqlash va sog‘lom turmush tarzi yaratish–davlat ijtimoiy himoya tizimi orqali sog‘liqni saqlashni takomillashtirish, fuqarolarga tibbiy xizmatlar va diagnostik yordam ko‘rsatishni ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning umumiy sog‘liq holatini yaxshilaydi va iqtisodiy faol fuqarolarni ko‘paytiradi.

5. Xalqaro yordam va integratsiya – davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va ijtimoiy himoya sohasidagi tajriba almashish orqali o‘z tizimlarini takomillashtiradi. Xalqaro tashkilotlar va donorlar orqali ijtimoiy himoya sohasida moliyaviy yordamlar olib kelinadi. Bularning barchasi davlatning xalqaro hamjamiyatdagi ishonchli pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Shunday qilib, ijtimoiy himoya tizimining davlat uchun foydalari katta bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatning umumiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Davlatning bu tizimni amalga oshirishdagi funksiyalari nafaqat ijtimoiy yordamni ko‘rsatishni, balki fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash va davlatning barqarorligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy himoya tizimi davlatning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muhim mexanizmdir va uning samaradorligi butun jamiyatning barqarorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy himoyada inson omilining roli juda katta. Tizimning muvaffaqiyatli amalga oshishi va natijalarining samarali bo‘lishi ko‘pincha inson resurslarining malakasiga va ularning vazifalarni bajarayotganda ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligiga bog‘liq. Misol uchun, ijtimoiy yordamlarni taqdim etishda davlatning xodimlari fuqarolar bilan to‘g‘ri va ehtiyotkorona ishlashlari zarur. Ijtimoiy yordamni ko‘rsatuvchi tashkilotlar ham samarali ishlashi uchun yetarli malakaga ega bo‘lishlari, odamlar bilan muloqotda bo‘lishda insoniy yondashuvni qo‘llashlari kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun davlatning o‘ziga xos ishonchli va adolatli siyosati ham talab etiladi. Ammo, ijtimoiy himoya tizimi ko‘plab kamchiliklarga ega bo‘lib, ular tizimning samaradorligini cheklaydi. Birinchi kamchilik, ijtimoiy himoya tizimi ko‘pincha markazlashgan va birokratik bo‘ladi. Bu esa tizimni sekinlashtiradi va fuqarolarni zaruriy yordamdan vaqtida foydalana olishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘pincha, tizimda zaruriy axborot yetishmasligi, keraksiz byurokratik to‘siqlar

va resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi natijasida, yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslar o‘z huquqlarini vaqtida amalga oshira olmaydi. Ikkinchi kamchilik –tizimning adolatsiz ishlashidir. Ijtimoiy himoya tizimi ba’zan muayyan guruhlarga nisbatan nohaq yondashuvni ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, ayrim hollarda, ijtimoiy yordamlar faqat muayyan ijtimoiy guruhlarga, mintaqalarga yoki ma’lum shaharlarga yo‘naltirilishi mumkin, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytiradi. Bunday holatlar davlatning resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi va ijtimoiy yordamni har bir fuqaroga teng tarzda taqdim etishi zaruriyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining yirik kamchiliklaridan biri –bu tizimning o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishidir. Ijtimoiy himoya tizimi tez o‘zgarib turadigan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga javob bera olmayapti, bu esa tizimni kam samarali qiladi. Masalan, pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz kabi favqulodda vaziyatlar paytida tizim ko‘pincha vaqtida javob bera olmaydi, bu esa zaif guruhlar uchun qo‘shimcha xavf-xatarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun bir qancha takliflar mavjud. Avvalo, tizimni markazlashgan va byurokratik jarayonlardan xalos qilish zarur. Bu orqali tizimning samaradorligi oshadi va fuqarolar uchun yordamni tez va oson olish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, davlat ijtimoiy himoya tizimiga texnologiyalarni joriy etish orqali byurokratik jarayonlarni soddalashtirishi mumkin. Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida fuqarolar o‘z huquqlarini tezda tekshirishlari, arizalarni onlayn tarzda taqdim etishlari va o‘z yordamlarini tez olishlari mumkin.

Ikkinchi taklif, tizimda adolatni ta’minlash uchun davlat ijtimoiy yordamlarni taqsimlashda yanada shaffof bo‘lishi kerak. Yordamlar ehtiyojga qarab, har bir fuqaroga teng taqsimlanishi lozim. Shuningdek, ijtimoiy yordamni taqdim etuvchi tashkilotlar va xodimlar malakasini oshirish zarur. Ular insonlarga nafaqat yordam ko‘rsatish, balki ular bilan samarali muloqot qilish va ularga kerakli axborotni yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga, tizimni ijtimoiy tenglikni ta’minlashga yo‘naltirish uchun, davlat ijtimoiy yordamlarni turli guruhlarga, jumladan, chekka hududlardagi aholiga ham yetkazishga intilishi lozim.

Yana bir taklif, tizimni ehtiyojlarga moslashtirish va tezkor javob berish qobiliyatini oshirishdir. Buning uchun ijtimoiy himoya tizimida tezkorkorlikka yo‘naltirilgan mexanizmlar yaratish zarur. Pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz kabi favqulodda vaziyatlarda ijtimoiy himoya tizimi tezkor yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu tarzda, tizim zamonaviy va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya

tizimining samaradorligini oshirish uchun davlat doimiy ravishda tizimni tahlil qilib, uning samaradorligini o‘lchash va qayta ko‘rib chiqish siyosatini olib borishi kerak. Tizimning har tomonlama baholanishi va takomillashuv jarayonining davomiyligi davlatning ijtimoiy himoya siyosatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa

Ijtimoiy himoya tizimi, davlat tomonidan jamiyatning zaif qatlamlarini himoya qilish, ularning farovonligini ta’minlash va ijtimoiy tenglikni yaratish uchun yaratilgan muhim bir mexanizmdir. Ushbu tizimning samarali ishlashi, ayniqsa, inson omili, davlatning siyosiy iradasi va ijtimoiy yordamlarni taqsimlashdagi adolatga bog‘liqdir. Shuningdek, tizimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlatning iqtisodiy barqarorligi va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Ijtimoiy himoyani amalga oshirishdan davlat uchun muhim manfaatlar mavjud. Avvalo, bu jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Tizim orqali davlat ijtimoiy adolatni ta’minlaydi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi va zaif guruhlar, xususan, qashshoqlikda yashayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimi fuqarolarning sog‘lom va farovon yashashiga hissa qo‘shadi, bu esa iqtisodiy faollikni oshiradi va umumiy ishlab chiqarishni yaxshilaydi. Tizimning o‘zgaruvchan ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi, iqtisodiy inqirozlar yoki pandemiyalar kabi favqulodda vaziyatlarda davlatning tezkorva samarali yordam ko‘rsatish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov, N. (2010). "Ijtimoiy himoya tizimi va uning iqtisodiy ahamiyati". Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Sanoat Vazirligi.
2. Zohidov, U. (2015). "Jamiyat va davlat: Ijtimoiy himoya masalalari". Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Shamsiddinov, F. (2018). "Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya: Nazariya va amaliyot". Tashkent: Akademnashr.
4. Khamidov, D. (2012). "Ijtimoiy himoya va iqtisodiy barqarorlik". Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti.
5. Akramov, O. (2011). "Sotsializm va kapitalizm tizimlarining jamiyatdagi o‘rni". Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyi.
6. Suyarov.Z Axmedov.A. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va gumanizatsiyalashtirish dolzarb muammo sifatida. http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2544-980X. Impact Factor: 9.9. B-15-19